TERI TANOSIL, BOLALAR TERI TANOSIL KASALLIKLARI VA SPID KAFEDRASI TOMONIDAN TALABALAR TURAR JOYI TALABA-QIZLARI O‘RTASIDA O‘TKAZILGAN SUHBAT BAYONNOMASI

Toshkent sh. **12.10.2025 yil**

Qatnashdilar: kafedra mudiri, prof. K.N.Xaitov, prof. A.M.Mannanov, M.I.Abdullaev, dotsentlar U.Sh.Rixsiev, N.B.Bababekova, S.M.Xodjaeva, O.A.Babadjanov, X.X.Axrarov, A.V.Mun, asissentlar X.A.Abidov, D.D.Nabieva, M.I.Adilgireeva, S.X.Pulatova, X.Abidov, A.A.Valiev va talaba-yoshlar.

KUN TARTIBI: Ayollar salomatligi bo‘yicha tadbir

Xotin-qizlar salomatligini asrash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy va ruhiy salomatlikni muhofaza qilish maqsadida profilaktik suhbatlar, davra suhbatlari va targ‘ibot tadbir o‘tkazildi. Tadbirda talaba-qizlarga shaxsiy gigiena, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik, stressning oldini olish va salomatlikka mas’uliyat bilan yondashish masalalari muhokama qilindi.

S.X.Pulatova - talaba-qizlarning bugungi kundagi shaxsiy muammolari va o‘qish jarayonida uchraydigan kamchiliklar to‘g‘risida so‘raldi. Talabalarning darsga qatnashish davomati, ularning fanlardan topshirayotgan imtixonlari, o‘zlashtirishi to‘g‘risida so‘raldi. Talabalar turar joyining tartib qoidalari, turar joyi binolaridagi madaniy-maishiy jihozlardan foydalanish, turar joyida o'tkaziladigan ommaviy, madaniy, sport va tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish, yaratilgan shart-sharoitlar haqida gapirib o‘tildi.



Turar joyida yashovchilarning majburiyatlari haqida gapirib, ttj nizomida ko‘rsatilgan majburiyatlar bilan tanishtirdi, mazkur nizom va turar joyi ichki tartib qoidalari, shuningdek universitet bilan tuzilgan shartnoma qoidalariga rioya qilish, navbatchilik jadvaliga binoan yashash xonalarida, qavatlarda, umumiy foydalanish joylari (hojatxona, yuvinish xonasi, oshxona va boshqa joylar) da navbatchilik qilish, umumiy foydalanish joylari, yashash xonalari hamda dam olish joylarida namunali tozalikni tashkil etish, undagi jihozlardan to'g'ri va unumli foydalanish, elektr jihozlaridan hamda isitish tizimidan foydalanish qoidalariga qat’iy rioya qilish va ulardan oqilona foydalanish, turar joyidan uzoq muddatga ketayotib (yozgi va qishki ta’til, dam olish, amaliyot, akademik ta’til olgan hollar), turar joyi rahbarini ikki kun oldin yozma ravishda ogohlantirib qo'yish, kundalik ehtiyojga ega bo'lmagan katta hajmdagi shaxsiy va qimmatbaho buyumlarni turar joyining buyumlar saqlash xonasiga topshirish, yashab turgan xonasi va boshqa umumiy foydalanish joylarini har doim toza va tartibli tutish; turar joyi binolaridagi madaniy-maishiy jihozlardan foydalanish, foydalanish uchun yaroqsiz holga kelgan jihoz, mebel va boshqa mulklarni ta’mirlash, yangilash hamda maishiy xizmatlardan foydalanishda yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etishni so'rab turar joyi rahbariyatga murojaat qilish, Talaba-qizlarda barcha so‘ralgan vajlar bo‘yicha muammo yo‘qligi, aytildi.

Qaror qilindi: Ayol o‘qituvchi-professorlar va talaba-qizlar uchun mentorlik ishlari doimiy olib borilsin.

Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mas’ul **S.X.Pulatova**